

Yoriyeva Dilafruz Oltinovna
Buxoro davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING RIVOJLANISHI HAMDA XIZMAT KO'RSATISH BOZORINING O'ZGARISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishida mamlakatimiz iqtisodiy hayotida xizmatlar ko'rsatish sohasining o'rniga baho berish maqsadida umumiy tarzda xizmatlar ko'rsatish sohasining mamlakat YaIMdagagi ulushidagi o'zgarishlar, so'ngi besh yil davomida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'rtacha o'sish sur'atlari hududlar kesimida tahlil qilingan. Bundan tashqari, 2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining tarkibiy hududlarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ko'rsatilgan xizmatlarning faoliyat turlari bo'yicha hajmi qiyosiy tahlil etilib, har bir aholiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmini aniqlash uchun barcha xizmatlar ko'rsatish hajmini aholi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlangan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti, diversifikatsiya, iqtisodiy o'sish, bankrotlik xavfi, yalpi hududiy mahsulot, samaradorlik

Аннотация

В данном исследовании с целью оценки роли сектора услуг в экономической жизни страны проанализированы изменения доли сектора услуг в ВВП страны, а также среднегодовые темпы роста рыночных услуг за последние пять лет по регионам. Кроме того, в период с 2020 по 2024 год проведен сравнительный анализ объема услуг, предоставленных в структурных районах Бухарской области, по видам деятельности, а также вычислен объем услуг, приходящихся на каждого человека, путем деления общего объема услуг на численность населения.

Ключевые слова: услуги, рыночная экономика, диверсификация, экономический рост, риск банкротства, валовой региональный продукт, эффективность.

Abstract

This study aims to assess the role of the services sector in the economic life of the country by analyzing changes in the share of the services sector in the country's GDP, as well as the average annual growth rates of market services over the past five years across regions. Additionally, a comparative analysis of the volume of services provided in the structural districts of the Bukhara region during 2020-2024 was conducted, broken down by activity types. The volume of services provided per capita was determined by dividing the total volume of services by the population size.

Keywords: services, market economy, diversification, economic growth, bankruptcy risk, gross regional product, efficiency.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish, ish o'rinalarini yaratish va yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanish sur'atlari bozor talabining dinamikasi, yangi turdagi sifatli xizmatlarni yaratish hamda iste'molchilarining ehtiyojlaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish omillari va tendensiyalarini tahlil qilish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, xizmat ko'rsatish jarayon bilan bog'liq bo'lib, unda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining rivojlanishi bozorining tarkibiy tuzilishi, rivojlanish tendensiyalari, bozor konyunkturasi o'zgarishi, raqobat muhiti hamda iste'molchilarining xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Zamonaviy xizmatlar bozori diversifikatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan bo'lib, bu jarayon innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, raqamli xizmatlarning kengayishi va tarmoq subyektlari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish bozorining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, uning asosiy omillarini aniqlash ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuv korxonalar uchun ichki daromad manbalarini ma'lum bir loyihalar doirasida oshirib borish borasidagi real imkoniyatlarni taqdim etib, shiddat bilan o'zgaruvchan bozor shart-sharoitlarida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash operatsiyalarini oson amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid adabiyotlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, S.Lee, D.Ribeiro, D.Olson va S.Roig xizmat ko'rsatish sanoatini milliy iqtisodiyotning muhim asosi sifatida ko'rib chiqishgan [2] bo'lsa, M.Scerri va R.Agarwal [5] SEPIA (Service Enterprise Productivity in Action) – xizmat ko'rsatish korxonasi samaradorligi modeli asosida ishlab chiqarish samaradorligini o'lhash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

N.Barnett, G.Parry, M.Saad, L.Newnes va Y.Goh [1] ishlab chiqarish korxonalarining tovar va xizmatlar taklif tizimini shakkantirish ya'ni servisga yo'naltirilgan xizmatlar ishlab chiqarilishiga ixtisoslashib borishini tadqiq etishgan.

Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish orasida sezilarli darajadagi tafovutlar mavjud ekanligi borasida ham akademik doiralarda qator ilmiy izlanishlar olib borilib, xususan, C.Lovelock, R.Young [3], S.Sampson, C.Froehle [4], S.Vargo, R.Lusch [6] tadqiqotlariga ko'ra, xizmatlarning nomoddiy xarakterga egaligi hamda xizmat ko'rsatishda mijozlarning o'rni, asosiy farqlovchi ikki omil sifatida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarining rivojlanish sur'atlari bozor talabining dinamikasi, yangi turdag'i sifatli xizmatlarni yaratish hamda iste'molchilarining ehtiyojlari idagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqligi xizmatlar ko'rsatish sohasining mamlakat YaIMdagi ulushidagi o'zgarishlari orqali tahlil qilingan. 2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining YaHM hamda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, 2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining tarkibiy hududlarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, 2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining tarkibiy hududlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi singari statistik ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar

Xizmat ko'rsatish korxonalari raqobatbardoshligini o'rganar ekanmiz xizmatlar bozorining asosiy xususiyatlarga birinchi navbatda e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Bizning fikrimizcha xizmat ko'rsatish korxonalari bozorining asosiy xususiyatlari quyidagilardan tashkil topgan:

Xizmat ko'rsatish korxonasi taqdim etgan xizmatlar natijasining mutloq aniqlikka ega emasligi. Ya'ni ma'lum bir xizmat iste'moli amalga oshirilayotganida uni darhol baholash murakkab jarayon bo'lib, noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin sanalib, yakuniy bahoni faqatgina iste'mol to'laqonli amalga oshganidan so'nggina bilib olish mumkin.

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati tashkiliy jarayonlarining mahsulot-tovar ishlab chiqarish jarayonlaridan mutlaqo farq qilishi.

O'zgaruvchan shart-sharoitlarda mazkur bozorning juda tez ta'sirlanuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi.

Xizmat ko'rsatish sohasining dinamik xususiyatlarga ega ekanligi. Ya'ni iste'molchi xizmatlar iste'molini amalga oshirishi bilanoq undan qoniqish hosil qilishiga erishish lozimligi.

Doimiy egalikning mavjud emasligi – xizmatlar nomoddiy ko'rinishga ega ekanligi boisidan, hech bir korxonaning xususiy mulki sanalmaydi.

Xizmatlarni saqlash imkonsizligi va ularni faqat amalga oshirish mumkinligi.

Kapital aylanmasining yuqori tezlikka ega ekanligi – tarmoqning asosiy biznes ustunligi ham aynan shunda ko‘rinadi.

O‘zaro almashinuv jarayonlarining tez-tez sodir bo‘lishi – xizmat ko‘rsatish korxonalar o‘zaro o‘xshash takliflarni ilgari surishi natijasida korxonalar o‘rtasida raqobat jarayoni amalga oshadi.

Barqaror bo‘limgan(o‘zgaruvchan) ish faoliyati – ayrim xizmat ko‘rsatish korxonalarini xodimlari malakasi boshqalariniki bilan solishtirganda yuqori bo‘lishi hisobiga xizmat ko‘rsatish samaradorligi ham shunga monand yuqori bo‘lishi, kadrlarning o‘zgaruvchanligi shart-sharoitlarida o‘zgarishlar kuzatilib turishi mumkin.

Aytish joizki, xizmat ko‘rsatish korxonalarining asosiy tamoyillari mijozlar ehtiyojlarini imkon qadar maksimal darajada qondirish va samarali xizmat ko‘rsatish jarayonini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida xizmat ko‘rsatish korxonalarining eng asosiy tayanch tamoyillarini aniqladik va bizning fikrimizcha ular quyidagilardan tarkib topgan:

1.Mijozga yo‘naltirilish – xizmat ko‘rsatishda mijozlarning ehtiyojlari va xohishlariga asoslanish, ularning fikrini inobatga olish.

2.Sifat va samaradorlik – xizmat sifatini doimiy ravishda oshirib borish va uni samarali tarzda taqdim etilishini ta‘minlash.

3.Motivatsiyalash – xodimlarni rag‘batlantirish hamda ularning kasbiy rivojlanishiga munosib shart-sharoitlar yaratib berish.

4.Innovatsiya va yangiliklarni joriy etish – yangi g‘oyalarni joriy etish va xizmatlarni muntazam yaxshilash maqsadida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

5.Moslashuvchanlik – bozor shart-sharoitlariga va mijoz talablariga oson moslashish qobiliyati.

6.Ochiqlik va shaffoflik – mijozlar va xodimlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, ochiqlikni ta‘minlash.

7.Axborot va kommunikatsiya – mijozlar bilan samarali axborot almashinuvi va kommunikatsiyani ta‘minlab berish.

8. Tezkor qarorlar – turli holatlarda xizmat ko‘rsatish jarayonida samarali qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilish.

9.Boshqaruv va samarali nazorat – xizmat ko‘rsatish faoliyat jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini shakllantirish.

10.Xodimlarning professional tayyorlarligini ta‘minlash – xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish va malakasini oshirib borish.

11.Mijozlar bilan munosabatlarni oqilona boshqarish – mijozlar bilan uzoq muddatli, davomli munosabatlarni rivojlantirish va saqlab qolish.

12.Tahlil va baholash – xizmat ko‘rsatish jarayonlarini doimiy ravishda tahlil qilish va baholash.

13.Raqobatbardoshlik – ma’lum faoliyat doirasida raqobatchilar bilan o‘zaro solishtirganda xizmatning o‘ziga xos afzalliklarini taqdim etish.

14.Mijozlar ijobiyl tajribasini shakllantirish – mijozlarning ko‘rsatiladigan xizmatlardan oladigan tajribasini yaxshilash va unutilmas bo‘lishini ta‘minlab berish.

15.Strategik rejalashtirish – xizmat ko‘rsatish strategiyasini ishlab chiqish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish.

16.Xizmatlarning keng ko‘lamliligi – mijozlarning turli darajadagi ehtiyojlariga mos ravishda keng xizmatlar assortimentini taqdim etish.

17.Tashqi muhitni o‘rganish – xizmat ko‘rsatish bozorining zamonaviy tendensiyalarini, raqobatchilarni hamda mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini o‘rganish.

18.Ijtimoiy mas’uliyat – faoliyatni amalga oshirish jarayonlarida jamiyat va atrof-muhitga bo‘lgan yuqori mas’uliyatni inobatga olish.

19.Resurslarni samarali boshqarish – moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni samarali tarzda boshqarish.

20.O‘zaro manfaatli hamkorlik – mijozlar, vositachilar va hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirib borish.

21.Kafolatli va sifatli xizmat ko‘rsatish – taklif etilayotgan xizmatlarning yuqori sifatliligini ta’minlab berish.

22.Oqilona narx siyosatini yuritish – narx belgilashda bozor shart-sharoitlari, iste’molchilar talabi va raqobatchilar belgilayotgan narx diapazonlarini inobatga olish.

23.Mijozlar uchun yuqori darajadagi iste’mol qulayligini yaratib berish – qanday turdag'i xizmatlar taklifi amalga oshirilmasin, birinchi navbatda potensial mijozlar uchun iste’mol qulayligini yaratib berish birlamchidir.

Yangi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishida xizmatlar ko‘rsatish sohasini muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Masalaning mohiyatini yanada teranroq anglash uchun mamlakat iqtisodiy hayotida xizmatlar ko‘rsatish sohasining o‘rniga baho berish bilan ahamiyatlidir. Buni umumiylar tarzda xizmatlar ko‘rsatish sohasining mamlakat YaIMdagi ulushidagi o‘zgarishlarda ham ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida YaIM va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 2015-2024 yillardagi dinamikasining qiyosiy tahlili [7]

Yil-lar	Mamlakat YaIM, trln. so‘m	YaIM-ning o‘sish sur’ati, %	Mamlakatda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, trln. so‘m	Ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘sish sur’ati, %	YaIMda ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi, %
1	2	3	4	5	6
2015	0,2214	100,0	0,0785	100,0	35,5
2016	0,2554	115,4	0,0971	123,7	38,0
2017	0,3565	161,1	0,1188	151,3	33,3
2018	0,4737	214,5	0,1509	192,2	31,9
2019	0,5947	269,2	0,1937	246,8	32,6
2020	0,6680	302,3	0,2200	280,3	32,9
2021	0,8205	371,5	0,2844	362,3	34,7
2022	0,9956	450,7	0,3669	467,4	36,9
2023	1,2045	544,8	0,6498	827,8	53,9
2024	1,4555	658,4	0,8184	1042,5	56,3


Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda YaIM 2015-2024 yillar davomida 6,6 martaga o‘sgan. Ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘sish surati shu davrda 10,4 martani yashkil qiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi shu tarzda 35,5 foizdan 56,3 foizga qadar o‘sgan.

Shuni e’tirof etish kerakki, har bir sohani rivojlantirish va samarali faoliyat natijalarini baholash uchun uni ifodalovchi ko‘rsatkichlari aniqlash kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida so‘ngi besh yil davomida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘rtacha o‘sish sur’atlari hududlar kesimida muttasil oshib borgan

Statistik ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil davomida xizmatlar ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanib, hududlar kesimida o‘sish sur’atlarining sezilarli tafovutlari kuzatildi. Xususan, Toshkent shahri 117,6 foiz o‘sish ko‘rsatkichi bilan yetakchi hudud sifatida ajralib turadi. Shuningdek, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida 114,5 foiz darajadagi o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, Navoiy viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatish sohasi o‘rtacha o‘sish sur’ati 113,4 foizni tashkil etgan. Buxoro, Namangan va Xorazm viloyatlarida 112 foiz atrofidagi o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etilgan bo‘lib, Samarqand viloyatida ushbu ko‘rsatkich 112,2 foiz darajadagi o‘sish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Farg‘ona viloyati 112,1 foiz va Toshkent viloyati 111,4 foiz ko‘rsatkichni qayt etdi. Tahlillar ko‘rsatishicha,

Surxondaryo viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘sish sur’ati 110,3 foizni tashkil etgan holda so‘ngi o‘rinni egalladi.

Buni tadqiq qilgan obyekti misolida qarab chiqadigan bo‘lsak, Buxoro viloyatida so‘ngi besh yil muddat yalpi hududiy mahsulot (YaHM) o‘zgarishida xizmatlar hajmining muttasil oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Mazkur tahlil asosida, YaHM 2020-yilda 35,32 trln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, 71,56 trln, so‘mga yetgan. Tahlil qilinayotgan ko‘rsatkich barqaror o‘sishga ega bo‘lib, taxminan 2,0 martadan ko‘proq ortgan. Buxoro viloyatda xizmatlar ko‘rsatish hajmining o‘zgarishi 2020-yilda 9,84 trln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, 34,49 trln, so‘mga yetgan. Xizmatlar ko‘rsatish hajmi barqaror o‘sishni namoyon etib, taxminan 3,5 martadan ko‘proq ortgan. Buxoro viloyatida xizmatlar ko‘rsatish hajmining YaHMDagi ulushi 2024-yilda 48 foizdan ortiqroqni tashkil etadi. Demak, viloyatda xizmatlar ko‘rsatish sohasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sohaning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. 2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining YaHM hamda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi [8]

Iqtisodiyotini rivojlantirishda har bir soha xoh ishlab chiqarish sohasi, xoh xizmat ko‘rsatish tarmog‘i bo‘lsin, albatta tashqi omillar o‘zgarishiga elastiklik xususiyatga bo‘lishi lozim. Xizmatlar ko‘rsatish sohasini ustun tomonlaridan biri bu kapital talabchanlikning yuqori emasligi, yo‘nalishga sarflangan xarajatlar o‘zini tezda qoplay olishi hamda bankrotlik xavfining pastligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, viloyatning tarkibiy hududlarida xizmatlar ko‘rsatish hajmi barqaror iqtisodiy o‘sish kuzatilgan (2-jadval).

**2-jadval
2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining tarkibiy hududlarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (trln. so‘m) [8]**

Tarkibiy hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yilning 2020-yilga nisbatan o‘zgarish, (foizda)
Buxoro viloyati	9,84	12,57	15,85	19,29	34,49	351
Buxoro shahri	3,74	4,65	6,04	7,51	9,21	246
Kogon shahri	0,35	0,44	0,59	0,73	0,88	251
Olot tumani	0,37	0,45	0,53	0,63	0,77	208
Buxoro tumani	0,57	0,67	0,83	0,99	1,20	211
Vobkent tumani	0,45	0,82	1,04	1,19	1,47	327
G‘ijduvon tumani	1,30	1,68	1,94	2,31	2,81	216
Kogon tumani	0,32	0,42	0,54	0,64	0,78	244

Qorako'l tumani	0,44	0,55	0,69	0,84	1,01	230
Qorovulbozor tumani	0,19	0,24	0,31	0,40	0,47	247
Peshko' tumani	0,55	0,69	0,88	1,06	1,25	227
Romitan tumani	0,52	0,69	0,88	1,07	1,29	248
Jondor tumani	0,59	0,69	0,85	1,03	1,25	212
Shofirkon tumani	0,44	0,56	0,71	0,87	1,04	236

Buxoro viloyatining tarkibiy hududlarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-2024 yillar oralig'ida Viloyatining tarkibiy hududlarida xizmatlat ko'rsatish hajmi barqaror o'sishni namoyon etgan. Ayniqsa, Buxoro viloyatining xizmatlat ko'rsatish hajmi 9,84 trillion so'mdan 34,49 trillion so'mga yetib, 351 foizlik o'sish sur'atiga yetgan. Biroq iqtisodiy o'sish hududlar bo'ylab bir xil sur'atda kechmagan. Ko'rinish turibdiki, Vobkent tumani 327 foizlik o'sish bilan tarkibiy hududlarda yetakchilik qilgan. Nisbatan yaqin ko'rsatkichlarni Kogon shahri 251 foiz, Romitan tumani 248 foiz, Buxoro shahri 246 foiz, Kogon tumani 244 foizlik natija bilan sezilarli o'sishga erishgan bo'lib, tarkibiy hududlarning yuqori natijalarga erishishi xizmatlar ko'rsatish sohasining kengayishi bilan bog'liq. Biroq, Olot tumani 208 foiz va Buxoro tumani 211 foizlik ko'rsatkich bilan nisbatan sustroq o'sishni qayt etgan. Ushbbu tarkibiy hududlarda yangi turdag'i xizmatlar ko'rsatish turlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish kerakligini ko'rsatadi.

2024-yil natijalariga ko'ra, xizmatlar bozorida sezilarli o'sish kuzatilib, jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2020-yilga nisbatan 351 foizga o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, 34,49 trln. so'mni tashkil etdi. Xarakterli jihat, xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning raqobatbardoshligi oshib borayotganidan dalolat beradi. Xizmatlar ko'rsatish bozorida ushbu faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarning ulushini aniqlash, bozor tarkibida tarmoqlarni o'rganish, ularning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish orqali sohaning iqtisodiy rivojlantirish imkoniyati mavjud deb hisoblaymiz.

Birinchidan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 241 foiz o'zgargan bo'lib, ushbu natija Buxoro viloyatida raqamli iqtisodiyotga rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Shuni e'tirof etish kerakki, moliya xizmatlar ko'rsatish ham yuqori o'sish sur'atini qayd etib, 271 foizga ortgan. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ijobjiy natijalarga erishish hududning barqaror iqtisodiy o'sishida investitsiya imkoniyatlarini samarali foydalanayotganlik bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, transport xizmatlari sohasida ham o'sish ko'rsatkichi yuqori bo'lib, 2020-yilga nisbatan 253 foizni tashkil etdi. Avtotransport xizmatlari esa 243 foizga yuqorilagan. Ushbu ko'rsatkich sohani rivojlanayotganligidan dalolat bersa, boshqa tomondan COVID-19 pandemiyasining oqibatida mamlakatlar o'rtasidagi sayyoohlar oqimining pasayishi 2020-yilga kelib transport xizmatlariga bo'lган talabni pasayishiga olib kelgan. Shu bilan birga, xalqaro hamda ichki savdoda viloyatning quruqlikdagi yo'llardan tashkil topib, to'liq shundan foydalanilishi transport xizmatlari samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Uchunchidan, sog'liqni saqlash hamda ta'lim xizmatlari 2020-yilga nisbatan 2024-yilga kelib, mos ravishda 373 va 319 foiz o'sishni qayd etdi. Ushbu ko'rsatkich Viloyatda aholising ijtimoiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan foiz nuqtai nazardan o'sish yuqori, ulush jihatidan pastligini ko'rishimiz mumkin. Ko'chmas mulk obyektlari bilan bog'liq xizmatlar 233 foizga ortgan bo'lib, ushbu ijobjiy jihat urbanizatsiya jarayonlari kuchayganini hamda ko'chmas mulk bozorida talab hamda taklif mutanosib tarzda oshayotganini anglatadi.

To'rtinchidan, maishiy tovarlarni ta'mirlash, shaxsiy xizmatlar hamda boshqa turdag'i xizmatlar sohasida ham yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Xususan, maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari 337 foizga, shaxsiy xizmatlar 350 foizga va boshqa turdag'i xizmatlar 428 foizga ortgan. Mazkur o'sish ko'rsatkichlari aholi daromatlari oshishi va turmush darajasi yaxshilanayotganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi va boshqa bir-qancha mezonlarga muvofiq aytish mumkinki, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi aholi turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Tahlil uchun olingan navbatdagi ko'rsatkichlar Buxoro viloyatining tarkibiy hududlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi 2020-2024 dinamikasidan iborat.

Bunda har bir aholiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmini (Asx) aniqlash uchun barcha xizmatlar ko'rsatish hajmini (Xh) aholi soniga (As) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniadi:

$$Asx = \frac{Xh}{As} \quad (1)$$

Yuqorida xizmatlar ko'rsatish sohasiga oid ma'lumotlar va ularning qiyosiy tahlilini bejiz keltirmadik. Buni to'g'ri anglash uchun mamlakatimizda ushbu sohani o'rganish ham maqsadga muvofiq. Chunki bugungi kunda xizmatlar sohasida amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligini ta'minlash masalasiga har tomonlama e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xizmatlar ko'rsatish sohasi bir tomondan ijtimoiy-iqtisodiy tizim bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan raqobatbardoshlik kurashini ta'minlovchi asosiy mezondir. Shu tufayli ancha o'nglanishlar ro'y bermoqda. Tadqiqot davomida keltirilgan ko'rsatkich Viloyatda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Chunki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi qancha ko'p bo'lsa, o'shancha sohada raqobat kurashi uchun imkoniyat degani. Buxoro viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkichning o'zgarish dinamikasi 4-jadvalda yillar kesimida keltirilgan.

3-jadval

2020-2024 yillarda Buxoro viloyatining tarkibiy hududlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi (mln. so'm) [8]

Tarkibiy hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yil 2020-yilga nisbatan o'zgarish, (foizda)
Buxoro viloyati	5,09	6,41	7,95	13,89	16,74	329
Buxoro shahri	13,32	16,46	21,07	25,72	30,98	233
Kogon shahri	5,79	7,16	9,47	11,40	13,51	233
Olot tumani	3,77	4,43	5,16	6,13	7,32	194
Buxoro tumani	3,43	3,96	4,77	5,64	6,69	195
Vobkent tumani	3,19	5,80	7,21	8,09	9,83	308
G'ijduvon tumani	4,26	5,44	6,16	7,23	8,64	203
Kogon tumani	4,01	5,29	6,58	7,66	9,10	227
Qorako'l tumani	2,67	3,30	4,15	4,93	5,84	219
Qorovulbozor tumani	10,69	12,73	16,32	20,31	23,51	220
Peshko' tumani	4,43	5,48	6,88	8,13	9,46	214
Romitan tumani	3,63	4,76	5,98	7,14	8,46	233
Jondor tumani	3,41	3,93	4,72	5,63	6,68	196
Shofirkon tumani	2,46	3,09	3,89	4,72	5,58	227

Buxoro viloyatining tarkibiy hududlari bo'yicha 2020-2024 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Xususan, 2020-yilda mazkur ko'rsatkich 5,09 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 16,74 million so'mga yetdi, bu esa 329 foizlik o'sishdan dalolat beradi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining kengayishi hududiy iqtisodiyotni rivojlanishi bilan birgalikda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, Vobkent tumanida eng yuqori sur'atda

o'sib, 308 foizlik o'sish bilan 9,83 million so'mlik hajmga erishdi. Ushbu dinamika xizmatlar sohasida foiz hisobidan yuqori bo'lib, ulush hisobidan kam bo'lib hisoblanadi. Masalan, Buxoro shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi 30,98 million so'mni tashkil etsada foiz hisobidan o'sish 233 ga teng. Bu esa Shahar aholisining ko'pligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar

Tahlil qilingan 2020-2024-yillarda xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanishi parallel ravishda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi bilan bog'liq bo'lib, tumanlar kesimida differential xarakterga ega ekanligini guvohi bo'ldik. Darhaqiqat, Kogon va Shofirkon tumanlarida 227 foizli o'sish bilan xizmatlar sohasida yuqori natijalarga erishdi. Ushbu jarayon tuman iqtisodiyotini rivojlanishi bilan bog'liq hisoblasak, boshqa tomonдан tumanlarda aholi soning kamligi ushbu o'sish foizini yuzaga keltirilgan. Ko'rinish turibdiki, Qorovulbozor tumani 220 foiz o'sish bilan xizmatlar sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan hududlardan biri sifatida ajralib turadi. Shuni e'tirof etish kerakki, Olot tumani 194 foiz, Buxoro tumani 195 foiz va Jondor tumani 196 foiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi past sur'atlarda o'sgani kuzatiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar

- 1.Barnett N. et al. Servitization: is a paradigm shift in the business model and service enterprise required?. – 2013.
- 2.Lee, S., Ribeiro, D., Olson, D. & Roig, S. 2007, 'The importance of the activities of service business in the economy: welcome to the service business', Service Business, vol. 1, no. 1, pp. 1-5.
- 3.Lovelock, C. & Young, R. 1979, 'Look to customers to increase productivity', Harvard Business Review, pp. 1-10.
- 4.Sampson, S. & Froehle, C. 2006, 'Foundations and implications of a proposed Unified Service Offering', Production and Operations Management Society, vol. 12, no. 2, pp. 329-43.
- 5.Scerri M., Agarwal R. Service enterprise productivity in action: measuring service productivity //Journal of Service Theory and Practice. – 2018. – Т. 28. – №. 4. – С. 524-551.
- 6.Vargo, S. & Lusch, R. 2004a, 'Evolving to a new dominant logic for marketing ', Journal of Marketing, vol. 68, pp. 1-17
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan. <https://www.stat.uz/uz/>
- 8.Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari <https://buxstat.uz/uz/>